


«ASAKA» BANK: 2017 YILNING BIRINCHI YARMI MOBAYNIDAGI FAOLIYAT YAKUNLARI


Mamlakatimizning moliyaviy xizmatlar bozorida o'z faoliyatining boshidanoq yetakchilik mavqeyiga ega bo'lgan «Asaka» bank, yetakchilik mavqeyini barqaror saqlab kelmoqda. Bank, mamlakat iqtisodiy hayotining barcha ishtirokchilari bilan yaqindan hamkorlik qilishga intilgan holda, o'z oldiga mulkchilik shakli va faoliyat ko'lamidan qat'iy nazar barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shuningdek, aholining barcha ijtimoiy qatlamlariga barcha bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Bank, har bir mijozning individual talabidan kelib chiqqan holda asosiy e'tiborini ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatiga qaratmoqda.

Joriy yilning birinchi yarmi mobaynida «Asaka» bank tomonidan investitsion jozibadorlikni oshirish, yuqori likvidlilik va barqarorlikni, asosiy ko'rsatkichlarning ildam o'sishini ta'minlash va ularni jahon standartlari talablari darajasiga yetkazish orqali raqobatbardosh, ichki bozor va eksportga mos mahsulotlar ishlab chiqaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan mijozlarga hamda xorijiy xamkorlarga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish yo'lida faol ishlar olib borilmoqda. Bank faoliyatiga xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan yuqori reyting baholari shundan dalolat beradi. Jumladan, jahonning yetakchi va nufuzli xalqaro reyting agentliklari sanalmish «Fitch Ratings» va «Moody's» tomonidan «Asaka» bank faoliyatiga qatorasiga bir necha yillardan beri yuqori reyting baholari berilmoqda. Bank faoliyati «Barqaror» deb tan olinmoqda. Xalqaro reyting agentliklari tomonidan «Asaka» bank faoliyatiga yuqori reyting baholarini berilishi, «Asaka» bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshib borayotganligidan, bank faoliyatining ishonchliligidan dalolat beradi.

Bank jami aktivlari joriy yil birinchi yarmi davomida 5 911,7 mlrd.so'mga o'sdi va 2017 yil 1 iyul holatiga 13,56 trln.so'mni tashkil etdi.




Bank jami kapitalini 171,0 mlrd.so'mga o'sishiga erishildi va 1 147,1 mlrd.so'mga yetkazildi.



Bank muntazam ravishda o'z tarkibiy tuzilmalari faoliyati samaradorligini oshirish va mamlakatimiz moliya bozoridagi ishtirokini kengaytirish bo'yicha faol ishlar olib bormoqda. Hozirgi kunda bankning tarmoq tizimi respublikamizning butun hududini qamrab olgan bo'lib, 26 ta filial, 86 ta mini bank, 256 ta chakana bank xizmatlari ko'rsatuvchi shahobchalar orqali aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarga barcha turdagi yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Bank tomonidan mijozlar bazasini kengaytirish borasida ham keng qamrovi ishlar olib borildi. Buning natijasida mijozlar soni 191,4 ming nafarga ko'paydi va ularning soni 1966,7 ming nafarni tashkil qildi.

2017 yil 1 iyul holatiga respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalariga yo'naltirilgan bank kredit qo'yilmalari hajmi 7 990,3 mlrd.so'mni tashkil qildi.



Kredit qo'yilmalarining 7 690,2 mlrd.so'm miqdoridagi qismi uzoq muddatli kreditlardan iborat, shu jumladan investitsion kreditlar – 6 674,8 mlrd.so'm.


«Asaka» bank tashkil etilganidan boshlab asosiy e'tiborni respublikamiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalarni

moliyalashtirishga qaratib kelmoqda. Jumladan, Bank tomonidan avtomobilsozlik, tog'-kon, neft-gaz, kimyo, energetika, yengil, oziq-ovqat, farmasevtika sanoati, transport, qurilish va boshqa tarmoqlarning investitsion loyihalari faol moliyalashtirib kelinmoqda.

Bank tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun 1 285,7 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi, 62,1 mlrd.som miqdorida lizing xizmatlari ko'rsatilib, lizing portfeli hajmi 154,6 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarini qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarda «Asaka» bankning hissasi oshib bormoqda.

Jumladan, Bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash va ularga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini kengaytirish, sifatini yanada yaxshilash va kredit mablag'lari hajmini ko'paytirish bo'yicha ishlarni faol davom ettirib, joriy yil birinchi yarmi davomida barcha moliyalash manbalari hisobidan kichik biznes subyektlariga 1 045,7 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.




Shu jumladan, ayollar tadbirkorligini tashkil etish va rivojlantirishga 93,7 mlrd.so'm, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 158,7 mlrd.so'm, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 9,7 mlrd.so'm, ta'lim muassasalari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun 9,1 mlrd.so'm, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarga 472,7 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Buning natijasida respublikamizning barcha hududlarida, ayniqsa mehnat resurslari zich joylashgan hududlarda xizmat ko'rsatish muassasalari tashkil etish, mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini oshirib, respublikamiz aholisini arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashni yaxshilashga, ayollar tadbirkorligi, kasanachilik va hunarmandchilikni rivojlantirishga hamda yangi ish o'rinlari yaratishga imkoniyat yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 6 apreldagi «Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo'jalik subyektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etishni yanada rag'batlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2015 yil 6 maydagi


«Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari ijrosini ta'minlash hamda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun investitsiya resurslarining g'oyat muhim manbai sifatida aholining erkin pul mablag'larini tijorat banklari omonatlariga jalb etishni yanada rag'batlantirish maqsadida «Asaka» bank tomonidan faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda 39 turdagi milliy va xorijiy valyutadagi omonatlar joriy qilingan bo'lib, omonatlarni bankning barcha filiallarida rasmiylashtirish mumkin.

Bank tomonidan naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish va aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha olib borilgan faol ishlar natijasida aholi omonatlari qoldig'i 2017 yil 1 iyul holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 218,8 mlrd.so'mga o'sdi va 924,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Omonatchilar soni 170,0 ming nafarga o'sdi va 1 925,0 ming nafardan oshdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi «Respublikada bank plastik kartochkalari asosida naqd pulsiz hisob-kitob tizimini yanada rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2017 yil 15 fevraldagi «Pul muomalasini yanada takomillashtirish va bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitoblarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida »gi Qarorlarini ijrosini ta'minlash maqsadida plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, bank tomonidan 2017 yil 1 iyul holatiga 1 921 371 dona plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, ularning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 143 909 donaga ko'paydi, 11 611 dona terminal o'rnatildi.



Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblar hajmi ham ko'paymoqda. 2017 yil birinchi yarmi davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar miqdori 1 133,5 mlrd.so'mni, shundan savdo aylanmalari hajmi 928,3 mlrd.so'mni tashkil qildi.

«Asaka» bank tomonidan o'z mijozlari va shu bilan birgalikda boshqa tijorat banklari mijozlari bo'lmish korxonalar va tashkilotlarda «ish haqi» loyihalarini joriy etish bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. 2017 yil 1 iyul holatiga 12 474 ta korxonalar va tashkilotlarda «ish haqi» loyihalari joriy etildi.

Plastik kartochkalarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida qo'shimcha infokiosklar xarid qilindi va o'rnatildi. Hozirda bank tomonidan o'rnatilgan 66 dona infokiosk va 27 dona bankomat orqali plastik kartochkalar egalariga tezkor xizmatlar ko'rsatib kelinmoqda. 2017 yil birinchi yarmi davomida plastik kartochkalar orqali amalga oshirilgan kommunal to'lovlar hajmi 60,0 mlrd.so'mni tashkil qildi.

Plastik kartalardan foydalanuvchilar infokiosk va bankomatlar orqali «SMS inform» xizmatiga ulanib, mazkur xizmat yordamida hisobiga pul mablag'larini kirim yoki chiqim qilinishi, savdo-servis tarmoqlaridagi transakziyalar to'g'risida tezkor ma'lumotlarni olish va boshqa axborotlarni olish imkoniyatiga egadirlar. 2017 yil 1 iyul holatiga mazkur xizmat turidan foydalanuvchilar soni 360 214 nafar mijozni tashkil etdi.

Muhtasar qilib aytganda, «Asaka» bank jamoasi joriy yilda mijozlarga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish orqali respublikamiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va aholi turmushini yanada farovon etish bo'yicha faol ishlar olib borishni maqsad qilgan.

Bank Axborot xizmati